

## EKOLOGIK MADANIYATNING TARIXIY-PEDAGOGIK TAHLILI

Asadova Muxlisa Abdilaxat qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

E-mail: [muxlisaasadova@gmail.com](mailto:muxlisaasadova@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15731991>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ekologik madaniyat haqida tushuncha, ekologik madaniyatning tarixiy-pedagogik tahlili haqida ma'lumotlar keltiriladi. Bundan tashqari, bu maqolada Markaziy Osiyoning va Jahon faylasuflarining ekologik madaniyat haqidagi pedagogik qarashlari hamda ilmiy asoslangan fikrlari keltirilgan. Ekologik madaniyatning tarixiy rivojlanish bosqichlari va inson faoliyati bilan bog'liq jihatlari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Ekologik madaniyat, rivojlanish bosqichlari, tarixiy-pedagogik tahlil, ekologik ta'lim, pedagogika va ekologiya, ekologik ong, atrof-muhit madaniyati, ekologik tarbiya, ekologik bilimlar tarixi, ekologik ma'rifat, ekologik qadriyatlar, tabiatni asrash, ekologik ongning shakllanishi.

## HISTORICAL-PEDAGOGICAL ANALYSIS OF ECOLOGICAL CULTURE

**Annatsion:** This article provides information on the concept of ecological culture, historical-pedagogical analysis of ecological culture. In addition, this article presents pedagogical views and scientifically based opinions of Central Asian and World philosophers about ecological culture. Aspects related to historical development stages and human activities of ecological culture are described.

**Keywords:** Ecological culture, stages of development, historical-pedagogical analysis, ecological education, pedagogy and ecology, ecological consciousness, environmental culture, ecological education, history of ecological knowledge, ecological enlightenment, ecological values, nature conservation, formation of ecological consciousness.

## ИСТОРИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о понятии экологической культуры, историко-педагогическом анализе экологической культуры. Кроме того, в данной статье представлены педагогические взгляды и научно обоснованные мнения философов Центральной Азии и мира об экологической культуре. Описаны аспекты, связанные с историческими этапами развития и деятельностью человека экологической культуры.

**Ключевые слова:** Экологическая культура, этапы развития, историко-педагогический анализ, экологическое образование, педагогика и экология, экологическое сознание, экологическая культура, экологическое образование, история экологических знаний, экологическое просвещение, экологические ценности, охрана природы, формирование экологического сознания.

## KIRISH

Hozirgi davr dunyoda globallashib ketayotgan olamshumul ijtimoiy-siyosiy muammolarni oqilona hal qilish, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlashni taqozo qiladi. Xususan, global ekologik inqiroz jarayonini bartaraf qilishda, inson o'z imkoniyatlarini tarixiy shart-sharoit mezonlari asosida baholash lozim. Chunki, insoniyat o'zining ilmiy, texnik, texnologik, intellektual

imkoniyatlari, rivojlanish tendensiyalarini to'g'ri baholay olmasa, istiqbol mo'ljallarini yo'qotadi. Shuning uchun, umuman hamma sohalardagi nazariy-metodologik qarashlar dunyo svillizatsiyasini qadriyatlarini o'zida aks ettirgan milliy tarixiy merosga, madaniyatga asoslanib muammolarni xal qilishi mumkin. Shuningdek ekologik olamshumul muammolarning genezisini, rivojlanish qonuniyatlarini falsafiy jixatlarini urganish xozirgi ba istiqbolda bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarini belgilab olishda muhim ahamiyatga ega [1].

Har qanday millatning tarixiy shakllangan ekologik madaniyati, muayyan ujtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda, tabiatni muhofaza qilish ihtiyojlari asosida vujudga kelgan milliy an'analari, urf odatlari, marosimlari bo'lib, insonlarning faol antropotexnologen tasiri natijasida o'zgarayotgan tabiiy muhitga moslashishlari hayotning davom ettirishida muhim omildir. Xususan, insonlarning keskin o'zgarayotgan ekologik vaziyatga, tabiiy muhitga ijtimoiy-psixologik jihatlardan kupikishi madaniy rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Insoniyatning ekologik xavfsizligini taminlash masalasi nazariya va metodologiyaning uzoq tarixiga borib taqaladi. Ekologik barqaror taraqqiyotning uzoq tarixiga borib taqaladi. Ekologik barqaror taraqqiyotning madaniy asoslarini qidirishga Markaziy Osiyo allomalarining nazariy qarashlarini xolis urganish katta ahamiyatga ega Zero, bu qarashlar jahon svillizatsiyasining tarkibiy qismidir. Lekin ba'zi xolatlarida, Sharq falsafasi, tarixiy merosi yevropasentrizim yoki markazizm nuqtai nazaridan baholanganligi natijasida g'ayri ilmiy, soxta xulosalar chiqarildi. Masalan, Yevropa sentrizimning ashaddiy na'munasi bo'lgan slavyanofillik falsafasining asoschilaridan biri B.S. Solovyovning "Uch qudrat" asarida yozilishicha "Musulmon dunyosida ijobiy fan, falsafa, xaqiqiy teologiya hech qachon mavjud bo'lmagan. Ularniki, nari borganda greklardan olingan mavxum falsafiy tushunchalar, imperik axborotlar majmuasidan iborat qarashlardir". Vaholanki bunday munosabat muayyan shovinistik, sinfiy-partiyaviy manfaatlariga asoslangan edi. Shuning uchun Sharqning ijtimoiy-ma'naviy rivojlanish tarixini, milliy mentalitetning ruhiy, falsafiy retrospektiv xususiyatlarini tahlil qilishda bir yo'qlamalik ko'zga tashlanadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari Al-Kimdiy (800-879 +yil) yagona abadiy mavjudlikning boshlanishini Xudo nomi bilan bog'liq. Ungacha, borliqdagi birlik -o'zidagi sababdan boshqa sababga ega emas va o'zgarmas turg'un, kamolot xolida bo'ladi. U hamma narsalardan ustun, qurilganidan xususiyatga ega emas xamda ko'plik va birlik korrelyasiyasida mustaqillikdir [2].

Boshlang'ich sabab Al-Farobiyning o'ylashicha, "mutloq abadiy, sababsiz nomoddiy bo'lib, hech narsa bilan bog'liq emas va hech narsani inkor etmaydi, uni aniqlab, bo'lmaydi". Birinchi entelliktdan boshlab borliq hamma narsani emanatsiya qiladi. Ibn Sino (980-1037) y ham shu fikrni qullaydi. Uningcha: "Boshlang'ich sabab o'zining uxshashiga, aksiga, turli fikrlarga ega emas".

Markaziy Osiyoning boshqa taniqli faylasuf Ibn Sino "Tabiatni yuqotib bo'lmaydi, lekin uning qonunlari o'zligicha o'zgarmaydi", deb subyektiv omilning dunyoni o'zgartirish roliga alohida baxo bergan edi. Xususan olamning paydo bo'lishi haqidagi ta'limotiga haqidagi ta'limotiga ta'limotida hayvonot va o'simlik dunyolari orasidagi uzaro munosabat, tabiat yaxlitligini tashkil qiladigan tizimga egaligini asoslashga e'tiborini qaratib, odam bilan tabiat o'rtasidagi o'zviy birlik mavjudligini ta'kidlagan [3].

G'arbning falsafiy merosiga ko'ra, dunyo tartibsdizir va uni yangidan yasash kerak. Sharq falsafasiga ko'ra esa, dunyo azaldan mukammaldir, shuning uchun tabiatga o'xshash -moslashishi kerak, shundagina inson va tabiat o'rtasida mutanosiblik, uyg'unlik vujudga keladi. Lekin, mukammal mavqeiy boshqa odamning mavqei bilan taqqoslanib emas, balki

Allohga nisbatan olinishi kerak. Shuning uchun odamning ijtimoiy -biologik mohiyatiga katta ahamiyat beriladi.

Soʻfiylar oʻrtasidagi "Buyuk shayx" deb eʼtirof etilgan Ibn Arabiy taʼlimotiga koʻra, "mukammal odamning ontologik jihati hamma narsaning birlik yotadi; xar narsaning ichidagi birlik boshqa narsalar bilan bogʻlangan va birlikda namoyon boʻladi." "Hamma borliq birlikdadir; dunyoda oliy birlik yoki birlik -koʻplikdagilardan boshqa narsada yuqlikdir", deb yozadi. Uning fikricha, Ontologik nuqtai nazardan "Mukammal odam"-Logosdir, xamda oʻz navbatida "universal reallik" ning sinonimidir.

Tabiat va jamiyatning oʻzaro munosabatlarini oʻrganish tarixida Ibn Xoldunning (1332-1406 y) falsafiy meros, oʻzidan avval oʻtgan Sharq mutafakkirlarining nazariy-metadologik qarashlariga, maʼnaviy-madaniyat haqidagi taʼlimotlariga suyangan holda, ijodiy rivojlantirilgan. Ibn Xoldun "Muqaddima" asarida (1375-1378 -yillari yozilgan) muttadil (barqaror) va nomuttadil (beqaror) iqlim -atmosfera temperaturasi, jugʻrofiy muhit inson irqiga va boshqa yashash tarziga taʼsir yunalishgʻarini hozirgi davrda shu nazariyalarning asoschilari, deb eʼtirof etilgan fransuz biolog olimi J. Lamarkdan (1707-1788) va ivolyutsion taʼlimot asoschisi hisoblangan Jan Batist Lamarkdan (1744-1829) qariyb toʻrt asr avval asoslab bergan edi [4].

Ibn Xoldun insonlarning hayotini yashash sharoitiga qarab shahar va qishloq hayot tarziga ajratar ekan, hozirgi zamon urbanologiya nazariya sining retrospektiv asoslarini genial tarzda ilgʻab olgan. Uning : "Bilingki, kishilarning hayot tarzidagi farq faqat hayot vositalarini topish usulidagi farqlarga bogʻliqdir", deb yozishi mehnat madaniyatini turkumlashtirishga ega boʻlganligini koʻrsatadi.

#### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

Markaziy Osiyo allomalarining nuqtai nazarida, insoning dunyoga kelishidan maqsadli, uning bilim olish, har ishga mohir inson boʻlib yetishishi, ilohiy sifatlari bilan ajralib turishdan iboratdir. Bu fikrni umumlashtirib aytadigan boʻlsak, insonning mohiyatida ilmiy, amaliy, ilohiy jihatlar mujassamlashtirgandir. Xudoning insonni yaratishdan maqsadi, insonning mukammal boʻlish vositalari, usullari orqali oʻz-oʻzini anglashidadir. Har ishga qoldir komil inson qanday boʻladi, degan savolga javob bera turib uni tabiiy muhitning hamda olamning markazi boʻlib, bir vaqtning oʻzida: tabiiy muhitning ham egasi ham homiysi hisoblanadilar. Inson hamma narsaning nomini bilgan xolda ularning ustidan hukmronlik qiladi, lekin hukmronlik maqomi, unga Xudoning yerdagi vakili boʻlgani sababli beriladi.

Hozir, umuman ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, xususan tabiatga taʼsir intensevlashib, ekologik muammolar globallashayotgan sharoitda, borliq rivojlanishiga inson omilining roli oshib borayotgan bir paytda, Markaziy Osiyolik mashhur allomalarning aytgan fikrlari borliqni (shu jumladan insonni), muxofaza qilishga alohida ahamiyat kasb etadi.

Insoniyatning tabiat bilan birligi, uygʻunlik haqidagi tasavvur, inson va tabiat oʻrtasida axloq normalariga, madaniyatga asoslangan ekologik munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda "inson tabiati" aksariyat holatlarda, uning tugʻma biologik - irsiy xususiyatlari yoki bio-ruhiy mavjudligi, barcha odamlar uchun umuman boʻlgan ijtimoiyligi, unversal xarakteristikasi, barcha xalqlar v millatlar uchun oʻzgarishsiz qoluvchi ,oʻziga xos qonunlar tarzida tushuniladi. Shuningdek, inson tabiatini, mehnatga, erkinlikka va hokazolarga boʻlgan intilishlarini tabiiy -ijtimoiy huquqlari tenglashtiriladi [5].

#### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

M. Shelerning (1874-1928 y) falsafiy antropologiyasidan boshlab, ushbu yunalish ijtimoiy biologiyani zamonaviy konsepsiyalarida R. Andri, E. Uayt, Z. Fred, E. Fromm va boshqalarning

asarlari ham yorqin namayon bo'ladi. Masalan M. Sheler fikriga ko'ra, inson bu hayotning mavjudlik shakllari nerarxiasiza namayon bo'luvchi barcha xususiyatlarini; hissiyoti tirik jonzotga xos rivojlanish, tabiiy tanlanish, ko'payishi, aql asosida amalga oshuvchi, pozitiv faoliyati, assotsiatsiyativ xotira, nazariy va amaliy texnik idrok, yangilikni ilg'ab olish, o'zgargan mutanosibliklarga berishishni o'zida mujassamlashtirgan "betob hayvon" sir. M. Sheler tabiri bo'yicha, insonning hayvonga farqi shuki, "Yangilikka intiluvchi hayvon" - inson o'zini o'rab turgan borliq bilan qoniqmay, balki o'zi yashayotgan tabiiy muhit chegaralarini buzib o'tishga intiladi. Agar hayvon o'zi yashayotgan tabiiy muhitga qaram bo'lsa inson tabiiy muhitga "ozod", mavjud borliqni o'zgartirish va o'zlashtirish qobiliyatiga bega jonzot. M. Sheler ushbu qobiliyatni ruh bilan bog'lab, inson o'zi tabiat ustidan yakka hukmdor emas, chunki uning mavjudligi va faoliyatlari hayotiy ehtiyojlar bilan taqazo qilingan va ichki harakatlantiruvchi kuchlarga, mexanizmlarga tayanadi, deb hisoblaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki M. Sheler konsepsiyasida bir qator qiziqarli ekologik g'oyalar mavjud. Bu eng avvalo, inson ijtimoiy mohiyatining turli tartibli, uning barcha jonzot bilan qondoshligi to'g'risidagi tasavvur; xilma-xil faoliyatning maqsadga, ruh va aqliy muvofiqligi, birligidir. M. Sheler fikriga ko'ra har qanday g'oy, tasavvur, insonning mohiyatini ifodalash uchun real ko'rinishidagi asosga ega bo'lishi kerak.

Ekologik vaziyat differentsiallashtiruvchi ekologik fanining tarmoqlanishi bilan bog'liq jarayondir. Shu bilan birga ekologiya patsionalizim yunalishi kuchaydi. Insoniy borliqning muayyan jihatlari mutlaqolashitish ruhiy tahlil nazariyasi ham xosdir. Shu o'rinda, Z. Freyd (1856-1939 -y) antroposotsiogenezida insonga ajdodlaridan meros qolgan ongsiz boshlanishining hal etuvchi ta'siri asosiy saba, deb hisoblagan. Ayrim faylasuflar jamiyatni hayvoniy instruktardan himoya qilish uchun ma'naviy, madaniyat me'yorlari haqidagi nazariyalar yaratishga urinishmoqda. Biroq Z. Freyd fikricha, ongsiz instinklar inson xulq-atvorida xal qiluvchi rol o'ynaydi. Inson tabiatini o'zgartirishga ijtimoiy-siyosiy omillar, faqatgina muayyan shart-sharoitlar rolini bajarish mumkin [6].

Inson tabiiy boyliklardan foydalanayotgan, dastlab, o'z faoliyati qanday oqibatga olib kelishini ko'z oldiga keltirgan emas. Kishilar qadim zamonlardan o'rmonlarni kesgan, baliq tutgan, tuproq unumdorligini kamaytirgan, daryo va ko'l suvlarini ifloslagan. Insoniyat tarixning dastlabki bosqichlarida tabiatga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan va tabiatga yetkazilgan shikastlari, biologik resurslarga yetgan talofatlarini uning o'zi to'ldirgan. Kishilik jamiyati ishlab chiqarish faoliyati, urbanizatsiya jarayonida kommunikatsiya va infrastrukturaning turli inshootlar, binolari, uylari, mashinalari, shaxtalari, ekin dalalariva boshqa "sun'iy tabiat"ni bunyod etdi va antropotexnologik faoliyati tabiiy muhitga kuchli ta'sirga etmoqda.

#### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Ekologik madaniyatning tarixiy rivojlanish bosqichlarini ko'rib chiqishga kirishishdan avval, umuman madaniyat tushunchasiga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

"Madaniyat" atamasi inson faoliyati bilan bog'langan. Ya'ni, madaniyat insonning jismoniy va aqliy kuchalari vositasida moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratishga qaratilgan faoliyati natijasidir. Nisbatan keng tarqalgan va ustuvor hisoblangan ta'rifga ko'ra, madaniyat – "kishilarning tabiatni, borlikni o'zlashtirish va o'zgartirish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar xamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yullari va usullari majmui". Albatta, bunday ta'rif, klassik ma'no o'z ahamiyatiga ega. Lekin jamiyat tarixiy taraqqiyot ijtimoiy makon va tarixiy zamonaviy zamonda doimiy, o'zliksiz rivojlanib borishi bilan yangi xususiyatlari, sifatlarini namoyon qiladi va yangicha ta'riflashni takozo qiladi. Demak biz ekologik madaniyat

tarixini tahlil qilganimizda shu metodologik tamoyildan kelib chiqish kerak deb hisoblaymiz hamda tadqiqot obyektiga bevosita bog‘liq bo‘lganligi uchun ba‘zi mualliflarning fikr - mulohazalariga munosabat bildirishini maqsadga muvofiq deb bilamiz [7].

### XULOSA

Ekologik madaniyat insoniyatning tabiat bilan bog‘liq ijtimoiy, madaniy va ma‘naviy munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida ekologik madaniyat tushunchasining shakllanishi tarixiy-pedagogik jarayonlar bilan uzviy bog‘liq ekani, Markaziy Osiyo allomalari — Al-Farobiy, Ibn Sino, Ibn Xaldun kabi mutafakkirlarning ekologik fikrlari bu sohaning nazariy asoslarini belgilab bergani aniqlandi.

Sharq mutafakkirlarining qarashlarida inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik, mas‘uliyat, hamkorlik tamoyillari asos qilib olingan bo‘lib, ular hozirgi ekologik tarbiya, ekologik ma‘rifat va ongni shakllantirishda muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun nafaqat zamonaviy texnologik yondashuvlar, balki tarixiy-madaniy meros, falsafiy tafakkur va pedagogik qarashlarni uyg‘unlashtirish zarur.

Shu asosda, ekologik madaniyatni shakllantirishda tarixiy-pedagogik tajribani chuqur tahlil qilish, o‘quv jarayoniga ekologik qadriyatlar, ekologik etikani singdirish va bu orqali barqaror taraqqiyot tamoyillarini mustahkamlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Soat, O. E. O. G. L. (2022). O‘qitishda Ta‘limiy Metodlarni Muvofiqlashtirishning Ilmiy-Nazariy Asoslari. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences*, 2(5), 1076-1086.
2. Erkin O‘G‘Li, S. O. (2023). Scientific-Theoretical Basis Of Coordination Of Educational Methods. *Academia Science Repository*, 4(05), 34-37.
3. Erkin O‘G‘Li, S. O. (2022). O‘qitishda Ta‘limiy Metodlarni Muvofiqlashtirishning Ilmiy-Nazariy Asoslari.
4. Норбўтаев, Х. Б. (2020). Биологияни Фанлараро Синфдан Ташқари Машғулотларда Ўқитишда Ўқувчилар Экологик Тафаккурини Ривожлантириш Методикаси. *Современное Образование (Узбекистан)*, (8 (93)), 74-79.
5. Тошева Д. И., Тошева Д. И. Педагогические Условия Экологического Воспитания На уроках Экологии В Высшем Образовании // *Academy*. – 2020. – №. 6 (57). – С. 88-89.
6. Тошева Д. И. Обучение Учащихся Начальных Классов Рациональному Использованию природных Ресурсов // *Вестник Магистратуры*. – 2019. – №. 4-4 (91). – С. 19-20.
7. Tosheva D.I. Ekologik Tarbiyalashda Xalq Og‘zaki Ijodining O‘rni Va Pedagogik Ahamiyati// *Scientific Progress*. – 2021. – Т. 1. – №. 5.